

*Bayramingiz muborak, aziz onajontar,
opa-singillar, dugonajontar!*



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

**«Kelajak ovozi»
Respublika
yoshlar tanlovi
Samarqand
viloyat
bosqichida
Arxitektura va
dizayn
yo'nalishi
g'olibi Parvina
Bahriddinova**



Dunyoda besabab narsaning o'zi yo'q. Goho hayotning kishi aqli ojizlik qiluvchi ishlariga qarab, hayrat barmog'ini tishlaysiz. Chunonchi, onalar, opalar, jaji singillar bayramining havo mayin tortib, tog'lardan suvlar shaldirab, maysalar quyoshga talpingan kunlarda to'g'ri kelishining o'zi katta bir in'om ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Shu boisdan ham sizlarning barchangizni go'zal bahor faslining bahoroylari degimiz keladi.

BAHORNING BAHOROVLARI

Siz jahon tarixida yorqin iz qoldirgan To'maris ona, zakovatli Saroyulkxonim, Gulbadanbegim, Zebunniso, Nodira, Uvaysiy, Anbar otin va boshqa yuzlab momolarimizning izdoshlarisizlar.

Sizlarning orastaligingiz, ota-onalaringizga bo'lgan hurmatlaringiz, o'qishda, ishda fidoiylklaringiz haqida soatlab gapirish mumkin. Bir-biridan chaqqon, bir-biridan bilimli Zulfiyaxonim qizlariga, lozar singillarimizga nafaqat o'zimizda, balki boshqa davlatlardagi tengdoshlari ham havas bilan qarayaptilar. Vatan bunday qizlarini sharaflab, ularning kamoloti yo'lida yangi-yangi imkoniyatlar, qulayliklar yaratmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov: «Onalarimiz, opa-singillarimiz, umr yo'ldoshlarimiz, qizlarimizning jamiyatdagi o'rni va mavqeini yana-da oshirish, izzat-ikromini joyiga qo'yish, ularning og'irini yengil qilish – davlatimizning, hukumatimizning, joylardagi hokimliklarning, keng jamoatchilikning asosiy vazifasi bo'lmog'i lozim», degan edi nutqlarining birida.

Siz ta'lim olayotgan o'quv yurtlarining qaytadan ta'mirlanib yoki yangidan bunyod etilib, eng zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlanganligi, ustozlaringizning ko'rsatayotgan g'amxo'rliklari va yana qanchadan-qancha ezgu ishlar amalga oshirilyaptiki, bularning hammasi sizlarning kamolotga yetkazish yo'lidagi jonbozliklar, desak xato bo'lmas.

Shularni yozayotganimizda, Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi 4-maktab o'quvchisi Behruz Avazov qo'ng'iroq qilib, maktab yetakchisi Shahlo Mavlonova boshchiligida «Tong yulduzi» yoshlar ijodiy guruhi tuzilganini, unga a'zo bo'lgan o'quvchilarning qo'lyozmalari muhokama qilinib, yaxshigina saboq olayotganliklarini va yetakchi opasini hamda E'tibor Yo'ldosheva, Sanobar Rahmonova va boshqa ustozlarini gazeta orqali bayram bilan tabriklashimizni so'radi.

Siz aziz muxlislarimizni – jon singillarimizni, opalarimizni, onalarimizni, momolarimizni bahor bayramingiz bilan qutlar ekanmiz, sizlarga hayotning eng yaxshi ne'matlari yor bo'lishini va gazetamizning har bir soni xonadoningizga yaxshi kayfiyat olib kirishini tilab qolamiz.

BUGUNGI SONDA:

2 -betda:

**«Men raqsga
tushaman»**

3 -betda:

**«Oyga
do'stmisan,
ukajon!»**

6 -betda:

**Ko'ngilga
sayr**

To'lqin Hayit



**1-Mart – shoiri Zulfiya
tavallud topgan kun**

*Men shunda tug'ildim, ko'rdim dunyoni,
Hayotga ilk qadam qo'rganman shunda.
Tilim nutq topdi, ko'zim ziyoni,
Mehr va erk bilan yashadim kunda.*

– Maktabda tadbir bo'lsa, zo'r-da! Men raqsga tushaman.

– Ey, men maqtansam arziydi, axir Xonzodabegim rolini ijro etaman.

– Hindcha raqsga esa men o'ynayman.

Tadbir boshlanishidan avval chug'urashayotgan bu qizlar Shayxontohur tumanidagi 13-maktab o'quvchilari. Barcha joylarda o'tkazilganday bu maktabda ham xalqimiz e'zozlagan ikki buyuk shoir tavalludiga bag'ishlab tadbir tashkillashtirildi. Navoiy hayoti va ijodi bilan boshlangan tadbirga Bobur bobomizning umr yo'llarini hikoya qiluvchi sahna ko'rinishi ulanib ketdi. Maktabning barcha yuqori sinf o'quvchilari tomonidan tayyorlangan bu ikki tadbirning badiiy rahbari Farida opa Haydarova. Ularning aytishlaricha, barcha

o'quvchilar tadbir-u bayramlarni yaxshi ko'rishadi, faol ishtirok etishadi. O'quv maskanida, ayniqsa, raqqosa qizlar ko'p. Tadbir ham 9-«V» sinf o'quvchisi Visola Mirsamidovanning «Tovus» raqsi bilan boshlandi. Visolaning raqsi o'lkamizga kirib kelayotgan bahorni eslatadi.

Va, albatta bunday tadbirlar she'r-u g'azallarsiz o'tmaydi. Zero, shoh Boburning misralari hech kimni befarq qoldirmaydi.

*Har yerdakim gul bo'lsa, tikan bo'lsa, ne tong,
Har qandaki may durdidin bo'lsa, ne tong.
She'rimda agar hazil, agar jid, kechurung,
Yaxshi borida agar yomon bo'lsa, ne tong.*

Maktabning g'azalxon qizlarini aytmaysizmi? Ulardan Mohisadaf Ubaydullayeva o'zining mayin ovozi bilan bizni rom etdi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Shoiri opa Nig'matovanning aytishlaricha, Mohisadaf tuman miqyosida o'tkazilgan «G'azalxon yoshligim» ko'rik-tanlovida 1-o'rinni egallagan. O'quvchilarning jonli chiqishlari tadbirning maroqli o'tishini ta'minlaydi. Shu sabab, tadbir tashkilotchisi Farida opa Boburning Hindistonda ekanligini bildirish

MEN RAQSGA TUSHAMAN

uchun sahna ko'rinishlaridan birini hindcha raqs bilan boshlaydi. Raqsi ijro etgan Muhayyo Isoqova buni qanchalik uddalaganini o'zidan eshitsu:

– Hind kinolarida ko'rganimda,

juda havasim kelardi. Hindcha raqsga qiziqaman. Hindcha raqs bilan sahna ko'rinishimiz ham qiziqarli chiqdi, menimcha. «Yulduzli tunlar» asarida esa Bobur hayotining turli davrlarini hikoya qiluvchi o'rinlar ko'p ekan. Shuning uchun asarni o'qiy boshladim.

Muhayyoning so'zlarini tinglab turib, yana bir marta amin bo'ldimki, maktabdagi tadbirlar o'quvchilarga ham bilim beradi, ham zavq bag'ishlaydi. Bundan tashqari, bugungi tadbir ularda nimagadir qiziqish uyg'otadi, kerak bo'lsa, kitob o'qishga undaydi. Istardikki, barcha maktablarimizdagi tadbirlarda shunday maqsadlarga erishilsa!

**Sayyora JO'RAYEVA,
Nafosat TOJIBOYEVA**



BAHOR NAFASI



Izg'irinlar ortda qolib, daraxtlar kurtak ocha boshlaydi. Saharlab qushlar chug'ur-chug'uri olamni tutib ketadi. Tabiat uyg'onadi. Bu bahor kelayotganidan darak. Bahor o'zi bilan birga mayin, beg'ubor ilhomlarni olib keladi. Biz esa bahorni qarshilab, «Xush kelding, fasllar kelinchagi!» deb kutib olamiz.

Maftuna ESHONQULOVA,
A.Navoiy nomidagi respublika Nafis san'at litseyining
7-sinf o'quvchisi

YASHARISH FASLI



Bahor fasllarning eng go'zali, eng xushro'yidir. Qir-u adirlarda boychechag-u chuchmomalar ko'zin ochib, bo'y cho'zadi. Inson qalbida yana yangi hissiyotlar, orzu-umidlar jumbushga keladi. Yangilanish va yasharish fasli bo'lmish bahor o'zi bilan bir olam shodlig-u quvonchlar olib keladi.

Hech birimizni tark etmasin bahorning iliq ifori!

Nodira TURG'UNOVA,
Chilonzor maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kollejining 1-bosqich talabasi

YULDUZGA OMAD



Litseyimizda har yili «Zulfiyaxonim qizlari» ko'rik-tanlovi o'tkaziladi. 12 yoshdan 17 yoshgacha qizlar ishtirok etadigan adabiyot, san'at va rassomchilik yo'nalishi bo'yicha bu yilgi bellashuvda 11-sinf o'quvchisi Yulduz Fayziy 1-o'rin sohibasi bo'lib, respublika miqyosida bo'ladigan tanlovda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.

Zulfiyaxonimdek ijodning yorug' yo'lini tanlagan Yulduzga omadlar tilaymiz!

Shahlo IMOMOVA,
A.Navoiy nomidagi respublika Nafis san'at litseyi o'quvchisi



Maktab o'quvchilari Manzura opa Eshmatovani «Usta tikuvchi», deb atashadi. Tikkan buyumlardagi ko'zni qamashtiruvchi ipak jilosi va ranglarning uyg'unlashuvi bolalarni o'ziga maftun etmay qo'ymaydi. Shogirdlaridan Shohista darsdan bo'sh vaqtlarida ustozni yoniga kelib, kashtachilik, zardo'zlik, tikuvchilik kabi xalq hunarmandchilik kasblarini o'rgana boshladi.

KASHTACHI

Shohista odatdagidek tikayotgan so'zanasining tayyor qismini ko'zdan kechirarkan, sinfdosh dugonalarining birgalikda uni kuzatayotganini payqamadi. Tovlanib turgan zangori osmon va yetti turdagi kamalak ranglarni matoda o'z aksini ko'rsatardi. Uning chaqqon va epcil harakatlanayotgan nozik barmoqlari so'znanaga go'yo ertangi orzu va o'ylarini ham qo'shib tikayotgandek edi.

Manzura opa ko'p yillardan beri G'allaorol tumanidagi A.Ibragimov nomli 63-maktabda faoliyat ko'rsatib kelyapti. O'quvchilardan Manzura Nurjovova, Shohista Bo'ronova va Nilufar Rajabovalar badiiy kashtachilik, zardo'zlik, zamonaviy biser usulida tikish-bichish ishlarini puxta o'zlashtirib oldilar. Kashtachilikka ishtiyoqi baland bo'lgan qizlar nafis, bejirim, bir-birini takrorlamaydigan kashtalar tikib, ustozlarini olqishiga sazovor bo'lishyapti.

**Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati**

Ustoz haqida so'z

BIR KELIB KETING SINFIMIZGA

Boshlang'ich sinf muallimining ko'zlariga tikilib qaraganmisiz? Uning harakatlarini kuzatganmisiz? Unda sezgandirsiz, bolajonlarning onadan keyingi o'rinda turuvchi aziz insoni – ustoz ham bolalarcha serharakat, zavqli va beg'ubor bo'lishini? Ular darslarida goh aktyorga, goh rejissyorga, goh dirijorga, goh mehribon onaga bir zumda aylana olishadi. Ana shunday mohir, izlanuvchan ustozlardan biri – Toshkent shahridagi 258-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Hanifa opa Toyirovadir. Biz ular dars beradigan 3-«A» sinf o'quvchilari bilan suhbatlashdik.

Murod O'ROZOV: – Hanifa opamizni juda hurmat qilamiz. Darsni guruhlariga bo'lib o'tamiz. Ayniqsa, «6 qalpoqcha» usuli bizga yoqadi. Bunda biz 6 guruhga bo'linamiz: «Ishbilarmon va tadbirkorlar» – ko'k qalpoqcha, «Allomalar» – sariq qalpoqcha, «Suxandonlar» – oq qalpoqcha, «G'unchalar» – qizil, «Tabiatshunoslar» – yashil, «Magistrlar» – qora qalpoqcha kiyib, shu rangdagi sharflarni bo'yimizga tashlab olamiz. Har bir guruh a'zosi o'zlarini erkin tutib, mustaqil fikrlaydi, maqollar aytadi.

Hayitboy ZIYOMUHAMMEDOV: – Bizga «Klaster» usuli ham yoqadi. Ustozimiz bir so'zni yozadilar, biz esa unga 5-6 ta ta'rif yozib, gul rasmini hosil qilamiz, ba'zan javoblardan serhosil mevali daraxt yasaymiz.

Madina OBIDOVA: – Yana bizga «5 qadam» o'yini yoqadi. 5 ta testga javob topib, oldinga intilaveramiz. O'qish darslarida matni sahnalashtiramiz. Musiqiy daqiqalarda kompyuterdan foydalanamiz.

O'quvchilarning to'liqlanib so'zlashlari, ustozga mehrlari bizni ham to'liqlantirib yubordi.


Keling, siz ham ustoz bilan tanishing. Hanifa opa 30 yillik ish tajribasiga ega, 24 yildan beri o'quvchilarga dars berib keladilar. O'rganish va izlanishdan charchamaydigan bu o'qituvchi tuman va shahar olimpiadalarini, konferensiyalarni o'tkazishda doim faol. Sinfdan kichik bir bog' yaratganlar, tokhada esa anvoyi gullar. O'quvchilari ham ustozlari kabi kompyuterni yaxshi bilishadi. Mehnat darslarida rangli qog'ozlardan turli shakldagi o'yinchoqlar-u gullar yasab, ko'rgazmalarni ko'paytirishadi. Sinfdan a'lochilar, bilimdonlar,

turli fanlar g'oliblari ko'p. Bunda Hanifa opaning mehnatlari bor. Serharakat, bolajon ustozning darslarini kuzatmoqchi bo'lsangiz, marhamat. Ustoz mayin jilmayib, sizni taklif etmoqdalar:


«Bir kelib keting sinfimizga!»

Yunusobod tumanidagi bu maktabda Hanifa opa singari ustozlar juda ko'p, kelganingizga achinmaysiz. Tajriba o'rganib qaytasiz.

GULYUZ



— Men 1-«A»
sinsida o'qiyman.
O'qishlarim a'lo.
O'qituvchim Gulsara
opani juda yaxshi
ko'raman. Kelajakda
ulardek muallima
bo'lmoqchiman.
«Tong yulduzi»
gazetasini doimo o'qib
boraman.
Lola
KO'KANOVA,
Toshkent shahridagi
215-maktab o'quvchisi




XALQARO OLIMPIADA – TOSHKENTDA

M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti rektori, akademik V.Sadovnichiy O'zbekiston ta'lim tizimidagi ishlarni yuqori baholab, 42-xalqaro Mendeleev olimpiadasi 2008-yil 28-aprel – 4-may kunlari Toshkent shahrida o'tkazish bo'yicha taklif kiritdi. Davlatimiz tomonidan ushbu taklif qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Toshkent shahrida o'quvchilarining kimyo fani bo'yicha 42-xalqaro Mendeleev olimpiadasi o'tkazilishi to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Ayni paytda o'quv maskanlarida kimyo oyligi, viktorina va bellashuvlar boshlab yuborildi. Avval xabar berganimizdek, bugungi sahifamiz mehmonlari poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 197-maktab o'quvchilari bo'ldi.



«KELAJAK VA EKOLOGIYA»

Maktabimizda mart oyi – kimyo oyligi deb e'lon qilindi. Kimyo o'qituvchimiz Dilorom opa Otamuhamedova boshchiligidagi «Kelajak va ekologiya» devoriy gazetani tayyorlayapmiz.

Gazetamizni qiziqarli chiqishi uchun harakat qilyapmiz. Viktorinalardan foydalanayapmiz. Bittasini sizlarga ham aytib o'tmoqchiman. Qaysi «shakar» zaharli bo'lgani uchun iste'mol qilib bo'lmaydi? Agar siz kimyo fanini yaxshi o'rgansangiz, bu savolga darrov javob topib olasiz.

Qadrli tengdoshlar, kimyo fani juda qiziqarli. Bu fanni yana-da yaxshi bilishni xohlasangiz, savol-javoblar, viktorina va skanvordlar tuzishda faol bo'ling.

XIII asrda 11 ta,
XVIII asrda 31 ta,
1850-yilda 59 ta element
ma'lum bo'lgan. Hozirgi
vaqtda 114 ta element
mavjud.

Kishi organiz-
mida 60 grammga
yaqin magniy, 80 gramm-
ga yaqin temir, 150
grammga yaqin natriy,
1000 grammga yaqin
kalsiy elementlari
bo'ladi.

Hilola HOJIAKBAROVA, 9-«D» sinf
o'quvchisi

«KIMYOGAR BOG'I»

Biz ham kimyo oyligiga tayyorgarlikni boshlab yuborganmiz. «Qiziqarli kimyo»ga eng qiziq kimyoviy tajribalarni topayapmiz.

Bilamizki, bir gulni yoki o'simlikni parvarish qilishga bir qancha vaqt kerak bo'ladi. Biroq, kimyogar bir necha soat ichida stol ustini, hatto xonani «o'simlik» bilan to'ldirib, «bog'»ga aylantirishi mumkin. Bog'bon o'stirgan o'simlik tanasi yashil bo'lsa, kimyogarning o'simlik tanasi har xil rangda bo'ladi. Bu «kimyogar bog'i» deb yuritiladi.


Yoki suv sovuqligicha «qaynashi», «tuxumxo'r grafini», olovsiz tuxum pishirish haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni bilishni xohlasangiz, biz sizni kimyo oyligiga taklif etamiz.

Sunnat FAYZRAHMONOV,
Uchtepa tumanidagi 197-maktabning
8-«B» sinf o'quvchisi

Ayyomingiz bilan, onajon!

OYGA DO'STMISAN, UKAJON?

Shohjahon RAUPOV



Esse

Davomi. Boshi o'tgan sonda.

Hatto onamga ham:

– Buningizga qarang, oyni meniki deb yuribdi. Tushunsang-chi, sen tug'ilmasdan avval ham oy bo'lgan-ku. Osmonda suzib yurgan...

Akam to'g'ri aytayotgan edi. Men tug'ilmasdan oldin oy kimniki ekan-a? Alamimdan yig'lab yubordim. Onam yumushlarini tashlab darhol meni ko'tarib oldilar, ko'z yoshlarimni artib, yuzlarimdan o'pib, erkalay boshladilar.

Ba'zida akam bilib-bilmay hazillashar, quloqlarimdan tortib:

– Bittasini oyga bersang-chi, do'sting xursand bo'lardi, – deb tegajog'lik qilardi. Men esa unga araz qilib, qovog'imni uyib indamay turaverardim. Xafa bo'lganimni sezgan onam:

1

– O'g'lim, oy seniki-ku axir, akang hazillashdi, – deya akam ikkimizni bag'riga bosardi. Chehramizga boqib:

– Biring oy, biring quyoshimsan, endi talashmanglar, – deb bizni ham, o'zini ham xursand qilardi.

Zum o'tmay akam barini unutib, savol berib, hammaning jig'iga tegardi. Faqat onamgina uni jerkimay, barcha savollariga bardosh bilan javob berar, xuddi bog'cha opamiz kabi shoshilmay tushuntirardi. Oy haqidagi savol-javobimiz doim bir xilda boshlanib, bir xilda yakunlanardi. Onam:

– Akang to'g'ri aytdi, oy avval ham bo'lgan, ilgari u otangniki, meniki, undan oldin bobong, buvingniki edi, – deb bizni, ayniqsa, meni ishortirardilar. – Oy ham, quyosh ham kim ularni ko'proq yaxshi ko'rsa, o'shaniki bo'ladi. Ukang oyni hammamizdan ko'ra ko'proq sevadi, unga ishonadi. Demak, oy uniki, Shohjahonniki!

...Onamning oy haqidagi rivoyatlari hamon yodimda. Emishki, juda qadim zamonlarda, hali kun, tun degan ayro damlar bo'lmagan kezlar ekan. Quyosh nomli bahodir, mard va pahlavon yigit Oy ismli sohibjamol qizga oshiq ekan. Quyoshning muhabbatidan odamlar o'zlariga quvvat olishar, Oyni malohati-yu zeboligi tillarda doston ekan. Odamlar ulardan yaxshi xulq, odobni o'rganisharkan. Ammo Qora dev bundan g'azablanar, ikki oshiqni ko'rarga ko'zi, otarga o'qi yo'q ekan. Oxiri bir hiyla ishlatibdi. Osmonda qora bulut paydo qilib, hammayoqni zulmat qoplabdi.

2

Odamlar qorong'uda bir-birlarini taniyolmay, oralarga sovuqlik tushibdi. Ekinlar o'smay, dov-daraxtlar qurib qolibdi, elni bu ofatdan qutqarish uchun Quyosh yo'lga tushibdi. Uzoq jang qilib, Qora devni yengibdi. Olam yana nurga, ziyoga to'libdi. Ungacha Oy hijron azobiga chiday olmasdan, Quyoshini izlab yo'lga chiqqan ekan. Qora dev uni yo'ldan chalg'itib, adashtiribdi. Shundan beri ikki oshiq bir-birlarini izlasharkan-u, ammo sira topolmas, Quyosh har tong Oyni izlab-izlab tinmay yo'l bosib, horib tog'lar ortiga bosh qo'yib, uyquga ketar ekan. Oy esa bu paytda endi uyg'onib, Quyoshni izlab ko'kka intilar, negaki, osmondan hamma narsa aniq-tiniq ko'rinar ekan-da.

Ammo Oyga qiyin, u umid bilan yo'lga chiqqanida, Hilol bo'larkan. Har tunda bir to'lishib, o'n beshinchi tunda Oy yana-da go'zal qiyofaga kirar, ko'rganlar unga shaydo bo'lib qolarkan. U esa Quyoshga zor, sog'inch, hijron azobiga chidayolmay, har kecha ozib-to'zib borarkan. O'ttizinchi kunda holsizlanib, odamlar ko'ziga ko'rinmas, uchinchi kun Quyoshni topishga umid bog'lab, yana Hilol qiyofasida osmonda paydo bo'lar, uni ko'rgan odamlar sevinganidan duo o'qib, Ollohdan omonlik so'rasharkan. Oy esa hali-hanuz qorong'u kechalarda Quyoshini izlashda davom etar, izlayverib, horib-tolib uxlab qolarkan. Uning ishqiy tunlarni charog'on etib, muhabbatning boqiyigidan darak berib turarkan.

Onamdan eshitganim ushbu rivoyatdan uqdimki, Oyni sevganlar, oy bilan sirdosh tutinganlar yaxshi odamlardir. Oy yaxshilar bilan do'stlashadi, yaxshilarni o'ziga sirdosh tutadi. Yaxshilarni tinglaydi, tushunadi. Sen-chi, aziz ukajonim, oyga do'stmisan?!

Davomi bor.

3

Abdulla ORIPOV
O'zbekiston xalq shoiri

BAYRAM

Toki tirik ekan dunyoda odam,
Unga hamroh erur goh shodlik, goh g'am.
Ertan ne bo'lishin bilmaskan ammo,
Tinch o'tgan har kuning, albatta, bayram.

Yordan ayri kechsa – har lahza abas,
Vafosiz do'stni ham do'stim dema, bas,
Keng jahon sen uchun bo'lmasdan qafas,
Tinch o'tgan har kuning, albatta, bayram.

Demagil, chopqirdir omadim manim,
Hech qachon belanmas loylarga sha'nim,
Ustingdan yozmasdan bir nomard g'anim,
Tinch o'tgan har kuning, albatta, bayram.

Oddiy narsalarni ko'zga ilmay goh,
Olis yulduzlar deb chekamiz oh-voh,
Boshingni qotirmay yoningdagi moh,
Tinch o'tgan har kuning, albatta, bayram.

Olamda bazm-u aysh uchrar alomat,
Bemorga bormikan undan halovat,
Mayliga yovg'on ich, lekin salomat,
Tinch o'tgan har kuning, albatta, bayram.

Eng avval tinch bo'lsin ko'ksingda vijdon,
Tinch bo'lsin el-u yurt, Vatan jonajon,
G'uborga chulg'anmay shu yer-u osmon,
Tinch o'tgan har kuning, albatta, bayram.

Yashashning zavqin sur, sira tolmasdan,
She'ring yoz, paysalga endi solmasdan,
Faqat qartayganda sevib qolmasdan,
Tinch o'tgan har kuning, albatta, bayram.

BOLALIK YILLARIM

Bolalik yillarim eslayman oz-oz
Bosiq uyqu ichra yotganda olam.
Tonglar qulog'imga kelardi ovozi:
«G'afatda yotmagil, erkatoiy bolam».
U jajji bahorning sho'x sasi edi,
U munis onamning nafasi edi.

**QUCHOQ OCH,
DILBARIM**

Keldim qoshingizga chopib, entikib,
Maysaga burkangan tog' etaklari.
Uch oy yo'lingizda yotdim ko'z tikib,
Ey, bahor bekachi – may chechaklari.


Garchand yuragimga gul ruxsoridan
Xazon yaproqlari endi yaqinroq.
Har nechuk qish faslin tund diydoridan
Jajji kapalakning vasli shirinroq.

Qaldiroq gumburlar yuksak tog'larda,
Chiltor qillariday taralar yomg'ir.
Shamol shovullaydi qadim bog'larda,
Buyuk, ko'hna dunyo ko'pchiydi og'ir.

Men uning qo'ynida kezdim saboday,
Qorlardan lola rang olovlar yoqdim.
Bir zum shahanshohlik tekkan gadoday, –
Umr o'tar, dedim dunyoga boqdim.

Quchoq och, dilbarim, shu gul nahorga,
Tumanli tuyg'ular bosmasin og'ir.
Iltifot qilmasak jajji bahorga,
Nuroniylar kuz bizni siylamas axir.

«BAYRAM»
AYLANMA SKANVORDI



Javoblarni shaklda belgilangan xonadan soat mili yo'nalishida yozing. So'ng, shakl atrofidagi raqamlarni javoblar yozilgan raqamli xonalardagi mos harflar bilan almashtirib, topshiriqni hal qiling. Hadisi-shariflardan birini bilib olasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Uzoq emas, yaqin o'tgan zamonda bolajon bir oila yashagan ekan. Bunday atashimizing boisi, o'zlarining uch nafar qizlari bo'la turib, oila boshlig'i Qosim aka va Jahon opalar yana o'n nafar bolalarni o'z qaramog'iga olgan ekanlar.

Uch opa-singilning to'ng'ichi Gulsara o'zi hali juda yosh bo'lsa-da, onasining eng yaqin ko'makchisi ekan. Fursat topildi deguncha, qo'liga qalam olib, qog'ozga o'zi ham tushunmaydigan allani-malarning rasmini chizaverarkan-chizaverarkan. Bog'chadagi tengdoshlari qo'g'irchoq o'y-nasha, u bir chekkada rasm chizish bilan andamon bo'larkan.



Qizaloq biror muddat ko'rinmay qolsa, uni qayerdan qidirishni yaxshi bilisharkan. Chunki u tog'asi – taniqli haykaltarosh, akademik Qosim Mirzarahimovning ustaxonasida o'tirishni juda yaxshi ko'rarkan-da.

Tog'asi unga topshiriqlar berar, shu tariqa san'atning metall va toshni yo'nib, haykallar yaratishdek murakkab va mashaqqatli yo'nalishi – haykaltaroshlikning sir-u sinoatlariga oshno qilarkan.

– Tog'ari, bu kasbning o'ziga yarasha mashaqqatlari, qiyinchiliklari ko'p. Lekin sen ularni chidam va bardosh bilan yengishing lozim. Chunki sen albatta haykaltarosh bo'lishing kerak! – derkan tog'asi qat'iyat bilan.

Gulsaraning chizgan rasmlarini ko'rgan ustoz Moskvada sirtqi badiiy akademiyasida tahsil olishni maslahat beribdi.

– Men hali maktab o'quvchisi bo'lsam, qabul qilisharmikin? – ikkilanibdi Gulsara.

– Chizgan rasmlaringni ko'risha, albatta qabul qilishadi... Ustozining daldasi bilan hujjatlarini Moskvaga yuborgan Gulsaraga tez orada o'qishga qabul qilinganligi haqida xushxabar kelibdi.

«UYIMIZNI BEZAB QO'YDIM»

Xushxabardan ruhlaniy yurgan kunlarining birida Gulsara uyda yolg'iz qolibdi. Uning oppoq devoriga katta qilib «Layli va Majnun» rasmini chizib qo'yibdi.

– Voy qizi tushmagur-ey, yaqinginada bo'yoqdan chiqqan devorni nima qilib qo'yding? – deya jig'ibiyron bo'libdi onasi.

– Sizni xursand qilaman, deb o'ylagandim, – xafa bo'libdi Gulsara. Shunda dadasi joniga oro kiribdi: – Qo'yaver onasi, uyimiz avvalgidan ham chiroyliroq bo'lib qolibdi, – deya ko'nglini ko'taribdi qizining.

MO'JIZALAR MASKANI

Ertaknamo tarzda boshlagan hikoyamiz aslida bor haqiqat. Uning qahramoni jaji Gulsara esa ayni kunda taniqli haykaltarosh bo'lib yetishgan.

O'zbekiston rassomlar akademiyasining a'zosi. Xuddi onasidek bolaparvar, bag'ri keng, mehridaryo ayol. Shunday bo'lmaganida, erishgan yutuqlari, mashhurlikning gashtini surib, ustaxonasida tinchgina ijod qilish o'rniga, imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berishdek sertashvish ish – jamoatchilik harakatiga boshchilik qilarmidi?!

Bolaligimda mo'jizalar faqat ertaklarda, kitoblarda bo'ladi, deb yurardim. Aslida hayotda ham mo'jizalar uchrab turarkan. Gulsara opaning tashabbusi, sa'y-harakatlari bilan tashkil topgan «Sanvikt» markazidagi imkoniyati cheklangan bolajonlar qo'li bilan yaratilgan asarlarni mo'jiza demay yana qanday atash mumkin axir?! 5 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan 150 dan ziyod o'g'il-qizlarni hamda kam ta'minlangan oila farzandlarini o'z bag'riga olgan ushbu markazni esa «Mo'jizalar maskani»ga o'xshataman.

YAKSHILIKLAR QILISHGA SHOSHILING! –

deya murojaat qilishadi markaz xodimlari barcha yurtdoshlariga va o'zlari birinchilardan bo'lib eziguliklar qilishga oshiqishadi.

Gulsara opa uchun bu maskan qadrdon uyidek bo'lib qolgan. Bolajonlar bilan bir dasturxon atrofida ovqatlanishadi, birgalikda dam olishadi. Hayotining mazmuniga aylanib qolgan shogirdlarining yutuqlaridan shodlanib, dardiga sherik bo'lib yashaydi. Har biri bilan soatlab shug'ullanishdan charchamaydi, zerikmaydi.

– Har bir inson dunyoga kelar ekan, hayotda unga va faqat uningagina atalgan qobiliyatni oladi, – deb hisoblaydi Gulsara opa. – Bolalarning hammasi ham ma'lum ma'noda iqtidorli bo'lishadi. Gap faqat bu nozik nihollarning unumdor zaminga tushish-tushmasligida qolgan. Bu esa siz-u bizga, ota-onalarimiz, ustozlarimizga bog'liq. Ular orasida mehrimizga hammadan ko'ra ko'proq tashna bo'lgan imkoniyati cheklangan bolajonlar ham borligini unutmashimiz lozim.

Yodingizda bo'lsa, avval ham bu markaz faoliyati haqida lavha tayyorlagan, uning nega «Sanvikt» deb nomlanishi haqida ma'lumot bergandik. Shunday bo'lsa-da, yana bir bor eslatib o'tishni joiz topdik. San – san'at, vikt – viktoriya, ya'ni «San'at doimo g'alaba qozonadi», degan ma'noni anglatadi. Markaz a'zolari orasida imkoniyati cheklangan o'g'il-qizlar ham borligi uchun ramziy ma'noda shunday nomlangan ekan.

«Cheklangan imkoniyatlar». Aytishga oson. Lekin bu so'z zamirida qanchadan-qancha jisman va ruhan azoblar yotishini



HAZRATI INSON




hammamiz ham his qilavermaymiz. Bunday insonlarga azoblarni yengishlari uchun bizning ko'magimiz lozim.

Aynan shu maqsadda tashkil qilingan markaz a'zolarining bir oila farzandlaridek ahil, inoq yashashlariga havas qilsa arziydi. Birgalikda o'qishadi, ijod qilishadi, bayramlar va tavallud kunlarini nishonlashadi. Respublika va xalqaro tanlovlarda markaz sharafini himoya qiladigan tengdoshlariga chin dildan omadlar tilashadi.

Umrini faqat xayrli va ezgu ishlarga bag'ishlab kelayotgan Gulsara opaning hamfikrlari, maslakdoshlari soni kun sayin ortib borayapti. Taniqli musavvirimiz Akmal Nur, sevimli san'atkorlarimiz Rixsi opa Ibrohimova, Gavhar Zokirova, taniqli suxandon Galina Melnikova, rassom Nodira Mirzayevalarni bolajonlar o'zlarining qadrdon do'stlari deb bilishadi, markazga kelishsa, boshlari ko'kka yetadi.

– Avaxxon bo'lmaganida, bu markaz ham bo'lmasdi, – deya turmush o'rtog'ining mehnatini yuksak qadrlaydi Gulsara opa. Chunki Avaxxon opa markazda ham o'qituvchi, ham tarbiyachi, ham oshpaz, ham bog'bon, ham qorovul sifatida



faoliyat yuritadi, binoni ham o'zi ta'mirdan chiqardi.

Markaz a'zolari kattalarning bunday beminna g'amxo'rliklariga javoban nufuzli tanlovlar, ko'rgazmalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, ulkan yutuq va sovrinlarni qo'lga kiritishayapti. 2000-yilda uch davlat: Rossiya, Ispaniya va Meksikada, 2001-yilda Yaponiyada bo'lib o'tgan xalqaro ko'rgazmalar, 2002-yilda Gretsiyada hamda 2003-yilda Yaponiyada o'tkazilgan bolalar ijodiyoti ko'rgazmalari, shuningdek, 2004-yilda Misr poytaxti Kairida uyushtirilgan ko'rgazmalar shular jumlasidandir. Yurtimizda nishonlanadigan Mustaqillik, Navro'z, Bolalarni himoya qilish kuni kabi bayram va tantanalarga bolajonlar ijodi namunalaridan tashkil qilingan ko'rgazmalar yana-da ko'rk bag'ishlaydi.

«Sanvikt»chilar yaratgan asarlar Samarqanddagi xalqaro tinchlik muzeyidan, «Bola qalbi gina bilmas» deb nomlangan o'zbek-fransuz ko'rgazmasidan ham munosib joy olgan. 8 yoshli Rinata Karimovaning 3 donagina barmoqlari bilan chizgan rasmlari, plastilindan yasagan asarlari kishining aqlini shoshiradi. Yaponiyaning Kanagava shahrida bo'lib o'tgan «Dunyo bolalar nigohida» nomli xalqaro tanlovda 2-o'rinni olgan qizaloq yaqinda xalqaro «Filantron» mukofotini ham qo'lga kiritdi. Markazning yosh modelerlari mana uch yildirki, respublika miqyosida o'tkaziladigan bolalar liboslari tanlovida 1-o'rinni qo'ldan bermay kelishyapti. Dilfuza Obidjonova ismli qizchaning chizgan rasmlari Moskvada, Misrda namoyish etilgan ko'rgazmalarda 1-o'ringa loyiq topildi va u rassomlik kollejiga imtihonlarsiz qabul qilindi.

Tarbiyalanuvchilar uchun yaratilgan respublikamizning nufuzli oliy o'quv yurtlariga kirib o'qish imkoniyati markazning ulkan yutug'i sanaladi. Uning ilk qaldirg'ochlaridan bo'lmish Rustam Bobojonov Kamoliddin Behzod nomli badiiy kollejni muvaffaqiyatli tamomlab, rassomchilik institutiga imtihonlarsiz qabul qilindi. Shuningdek, «Tashabbus», «Kelajak ovozi» tanlovlari 1-o'rinni qo'lga kiritib, ustozlari ishonchini oqladi.

Shogirdlari qo'lga kiritayotgan bunday yutuqlardan Gulsara opaning boshi ko'klarda. O'zining uch nafar farzandlari yutug'laridan qanday quvonsa, ular uchun ham shunday shodlanadi.

– Bolalar uchun shunchalar kuyib-pishasiz, qayg'urasiz. Lekin hech qanday manfaat ko'zlamaysiz. Oliy o'quv yurtlarida o'qib, hayotda o'z yo'lini topib ketgan ayrim shogirdlaringiz esa keyinchalik hatto qo'ng'iroq ham qilib qo'yishmaydi-ya, – deya ta'na qilishadi gohida opaga.

– Qo'yaveringlar, – deydi Gulsara opa Rajabova mayin jilmayib, – ular yutug'ining o'zi menga mukofot!

Ayni kunlarda markaz a'zolari uning 10 yillik to'yini o'tkazish uchun qizg'in hozirlikni boshlab yuborishgan. Yo'lingiz azim Toshkentning Qo'yliq mavzesi taraflariga tushsa, bu eziguliklar maskaniga albatta kiring. Shunda borliq ko'zingizga yana-da go'zalroq ko'rinadi, hayotda ham mo'jizalar uchrab turishiga o'zingiz amin bo'lasiz.

Biz ham u yerda bo'ldik. Binoni bayramona bezatayotgan bolalar orasidan Gulsara opani bazo'r topib, orzulari haqida so'radik:

– Hademay 60 bahorni qarshilayman. Hozircha qo'lim bo'shamayapti. Ulgursam, yubileyimda ko'rgazmam namoyishini o'tkazmoqchidim...

Gulsara opani tanigan-bilganlar uning bolalarnikiday beg'ubor qalbini osmonlarga, keng bag'rini daryolarga, g'ayrat-u shijoatini ummonlarga qiyoslashadi. Men esa gapni muxtasar qilib, opani hazrati inson degim keldi.



**ONAMDEK
BAG'RI
KENG
BORMI
OLAMDA?**

Men uchun mo'tabar, aziz, mukarram,
Mehribon, oqila, suluvim onam.
Tunlari uxlamay allalar aytib,
Xonamni yoritib kiritmagan g'am.

Yoshlikdan o'stirib, oq yuvib, tarab,
Mening baxtim uchun o'zdan voz kechgan.
Vatanga munosib farzand bo'lsin, deb,
Har tongda ortimdan duolar qilgan.

Quyoshli, unumdor, bepoyon go'zal,
Vatanni mengzadam faqat onamga.
Xalqini mehr-la bag'riga olgan,
Onamdek bag'ri keng bormi olamda?

Shohinur USMONOVA,
- Sirdaryo viloyati, Sayxunobod
tumanidagi 28-maktabning
3-«A» sinf o'quvchisi



**GO'ZAL
KECHA**

Sokin kechalarda yulduz yaltirar,
To'lin oy osmonda tanho kezadi.
Shu'lalar anhorda tangadek titrar,
Sukutni hasharot sasi buzadi.

Tun qo'ynida cho'kkan lolazorlarni,
Uxlata tungi el allalar aytib.
Misoli egarlab sho'x samanlarni,
Xayollar uchadi olisda daydib.

Shundayin betakror, maftunkor tunda,
Yulduzlar ko'z qisib so'zlaydi ertak.
Poyoniga yetar tun ham osuda
Yangi kun yoyilar misli kelinchak.

Nargiza ABDULAZIZOVA,
Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi
6-o'rta maktabning 11-sinf o'quvchisi

LOLA

Adirlar bag'rida hilpirar lola,
Bahoroy to'yiga chorlab har yonni.
Ko'kka hadya go'yo qirmiz piyola,
Jaranglab uyg'otar mudroq dunyoni.

Ona labida joy oldi xanda,
Allalar aytadi oppoq shalola.
Ana, yana bitta keng xonadonda,
Lolani tabriklab tug'ildi Lola.

Saadat HAYITOVA,
Toshkent shahridagi
322-maktab o'quvchisi

**O'ZIMNING
BUVIJONIM**

Yuzingiz misli quyosh,
Hurmat qilar katta-yosh.
Bizning yudagi quyosh,
O'zimming buvijonim.

Mehringizni ayamay,
Berasiz biz yoshlarga.
Mehribonsiz juda ham,
O'zimming buvijonim.

Yaxshi ko'raman sizni,
Siz ham sevasiz bizni.
Og'ruman dilingizni,
O'zimming buvijonim.

Qayda bo'lmaylik doim,
Bizlarga oftob oyim.
So'zlaringiz muloyim,
O'zimming buvijonim.

Nodirabegim ARSLONOVA,
Toshkent shahridagi
300-iqtidorli o'quvchilar
maktabining 6-sinf o'quvchisi

**O'ZBEK
AYOLI**

Yurtimning iftixori,
Go'zal juda, iboli.
Farzandadir xayoli,
Bu - o'zbeгим ayoli.

To'marisning mardligi,
Barchinoy sodiqligi.
Tilidan tomar boli,
Bu - o'zbeгим ayoli.

Nigora NORMURODOVA,
Surxondaryo viloyati,
Muzrabot tumani

**«8-Mart
bugun»**

Bugun gul quchar ayol,
Qaylarga uchar xayol.
Bahordek nafis qizlar,
Bugun go'zaldir sizlar.

Buvi, gul taqdim etsam,
Yoshingizga men yetsam.
Ona, tilagim aysam:
Bir umr men-la qoling.

8-Mart qutlug',
Bu ayyom juda ulug'.
Bu kun hech unutilmas,
Ayolsiz samo kulmas.

Lolaxon ODILJONOVA,
Sergeli tumanidagi
266-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi



Miraziz A'ZAM

**YONG'OQ
ULASHAMAN**

Bir cho'ntak yong'og'im bor,
Ulashaman bir qator.
Olasizmi, olmaysiz,
O'zingizda ixtiyor.
Sergaplarni odamlar,
«Bir qop yong'og'» deydilar,
Chunki ular shaldirab,
Ko'pincha pand yeydilar.
Men ko'p gapni demasman,
Bir qop yong'og' yemasman,
Yong'og'im bor bir cho'ntak,
Ulashsam, pand yemasman.
Biri hazil, biri chin,
Biri quvonch, biri kin.
Qani, kimga salom-u
Saboq olar qani kim?
Bir cho'ntak yong'og'im bor,
Ulashaman bir qator,
Olmasangiz olmaysiz,
Sizda qolar ixtiyor.

PUCH YONG'OQ

Puch yong'og',
Puch yong'og',
Eplolmadik hech, yong'og'.
Shaldir-shuldir qilasan,
Ko'p noo'rin kulasan.

Qancha shaldiramagin,
Qancha valdiramagin.
Bizni alday olmaysan,
To'q yong'og' bo'lolmaysan.

TO'Q YONG'OQ

To'q yong'og',
To'q yong'og',
Mag'izga to'liq yong'og'.
Chanoqdan toshib turgan,
Paxtaday bo'liq yong'og'!


Oymisan, oftobmisan,
Miyali koptomkisan.
Saxiy qaynar xumchami
Yo dumaloq qopmisan?

Buvim sendan keltirsa,
Zavqim bir quchoq bo'lar.
Chunki u mag'izingdan
Holva pishirmoq bo'lar.

Mag'izing - mag'iz emas,
Sariyog'mi, qaymoq bo'lar.
Holvangni yegan bola,
Gijinglab toychoq bo'lar.

To'q yong'og',
To'q yong'og',
Paxtaday bo'liq yong'og'.
Hammani xursand qilgan
Mag'zi sap-sariq yong'og'!

Naqadar ajoyibsan,
Buncha saxiysan, o'rtoq!
Bir kun yo'ldan toyib san
Bo'lmagin-da tosh yong'og'...



Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

Aftidan, Albus Dambldor o'zini noxush, u bilan bog'liq barchasidan, ismidan boshlab to botinkalariga dovur xursand bo'lmay kutib olgan ko'chada paydo bo'lganini aslo anglamayotganday edi. Biroq, bu uni tashvishlantirmayotgandek tuyulardi va u nimanidir topish ilinjida ridosining cho'ntaklarini kavlashtirardi. U o'zini kuzatib turishganini aniq sezardi, chunki to'satdan ko'chani narigi chekkasida o'ziga tikilib turgan mushukka nigohini qaratdi. Qiziq, lekin mushukning ko'rinishi uni nima uchundir quvontirib yubordi.

- Xuddi shuni kutish mumkin

edi, - dedi u g'oldiragancha miyig'ida kularkan.

Nihoyat, u ichki cho'ntagidan izlayotgan buyumini topdi. Bu o't yondirgichga o'xshash kumush rangdagi buyum edi. Albus Dambldor kumushrang qopqoqni ochdi va shiqillatdi. Ko'chadagi o'nga yaqin chiroq darhol o'chdi. U o't yondirgichni yana shiqillatdi, keyingi chiroq ham zulmatga cho'kdi. O'n ikki bor shiqillatgandan keyin faqat olisdagi ikkita mittigina tikanli olov - Dambldorni tikilib kuzatayotgan mushukning miltiragan ko'zlaridan bo'lak Tis ko'chasi hammasi chiroqlar o'chdi. Mabodo, shu tobda biror kimsa derazasidan qaraganda

ham, hatto Dursl xonimning marjondek ko'zlari hech nimani ilg'amasdan qolmasa-da, bu odam ko'chada nimalar sodir bo'layotganini ko'ra olmasdi.

Dambldor o't yondirgichini, aniqrog'i, o'chirgichini ridosining ichki cho'ntagiga qaytib soldi va to'rtinchi uy tomonga yurdi. U yerga yetib borgach esa, devordagi mushuk yoniga o'tirdi va unga loqal qiyo ham boqmay dedi:

- Sizni bu yerda ko'rish nihoyatda g'aroyib, professor MakGonagall.

U jilmaydi va baroq mushukka o'girildi, ammo


jonivor ko'zdan g'oyib bo'lgan edi. Uning o'rnida ko'rinishi anchayin jiddiy, shakli-shamoyili mushukning ko'zlari atrofida belgilarga g'aroyib darajada o'xshash ko'zoynak taqqan ayol o'tirardi. Ayol ham zumrad rangli rido kiyib olgandi. Uning qora sochlari boshining ensa qismida yig'ilib, mahkam turmaklangandi. Uning ko'rinishidan ancha badjahlligi darhol sezilardi.

- Meni qanday tanidingiz? - so'radi u.
- Azizim professor, shunchalar qilt etmay o'tiradigan mushukni umrimda sira ko'rmaganman.

- Bu yerda qimirlolmay ham qolasan, kuni bilan g'ishtin devorda o'tirishning o'zi bo'larkanmi, - deya javob qaytardi professor MakGonagall.

- Kun bo'yi? Boshqalar bilan birgalikda bayramda yayrashingiz mumkin

Gulchehra SA'DULLAYEVA
tarjimasi



Davomi bor.


REKORDCHI QIZ MAFTUNA

Ammo endi hammasi boshqacha. Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining 2007-yilgi «Manzilli dasturi»ga asosan bu maskanda ta'mirlash ishlari olib borildi. «And-shijoatli quruvchi» xususiy korxonasi (rahbari Erkin To'xtasinov) o'z zimmasidagi yumushni maromiga yetkazib bajardi. Natijada suzish maktabi bugun butunlay yangicha ko'rinishga keldi. Ya'ni, yechinish va kiyinish xonalari, ma'muriy bino to'liq ta'mirlandi. Yangi zamonaviy o'rindiqlar o'rnatildi. Isitish qozonlari ishga tushdi. Eng asosiysi, ochiq suv havzasi, jahon standartlariga to'la mos keladigan tarzda to'liq yangilandi. Suvni muntazam tozalab beradigan ikkita filtr o'rnatildi. Maktabda keng ko'lamda obodonlashtirish ishlari olib borildi, atrofi devor bilan o'raldi. Shuningdek, jamg'arma tomonidan maktab shug'ullanuvchilariga sport liboslari berildi.

Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining Andijon viloyat filialiga Ikromjon Valiyev rahbarlik qiladi. Ikrom akada sportga mehr kuchli. U kishining jamg'arma filiallari direktorlari va «Yoshlik» ko'ngilli jismoniy tarbiya va sport jamiyati viloyat kengashi rais o'rinbosarlari o'rtasida o'tgan Respublika ko'pkurash musobaqasida faxrli uchinchi o'rindan joy olgani ham tasodifiy emas.

Biz bayram bahona Ikrom aka bilan jamg'arma faoliyati haqida suhbatlashganimizda, dastlabki savolimizning o'zidayoq, viloyatda qizlar sportiga katta ahamiyat berilayotganligi haqida gapirdilar. O'tgan yilda qurilgan sport majmualarida ham ko'proq maktab o'quvchilari jalb qilinganligini aytib o'tdilar.

– Jamg'armaning 2007-yilgi «Manzilli



Andijonlik Maftunabonu To'xtasinovani ko'p eshitgansiz. 14 yoshli bu sportchi qiz suzish bo'yicha kattalar o'rtasida O'zbekiston chempioni. Mamlakat terma jamoa a'zosi. 12 yoshida u Osiyo o'yinlariga borgan umidli sportchi qizlarimizdan. Maftuna Germaniyada o'tgan nufuzli xalqaro turnirda to'rtinchi masofada oltin medalga erishgan chempionlardan. Shuningdek, «Umid nihollari – 2006» sport musobaqasining rekordchisi hamdir...

Maftunabonu Andijondagi «Marvarid» suzish maktabida mashg'ulotlarda chiniqqan. Bugungi muvaffaqiyatlarga erishishiga ham shu maktab yo'l ochgan desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Maftunaning yutuqlarini jasorat deb tan olamiz. Chunki «Marvarid»ning ochiq suv havzasi ancha oldin qurilgan bo'lib, Maftuna shug'ullanib yurgan mahalda hatto sharoitlari ham maqtagulik holatda emasdi...

3-mart kuni poytaxtimizning Olimpiya shon-shuhrati muzeyi yurtimizning yosh sportchi qizlarini o'z bag'riga chorlaydi. Shu kuni 8-Mart – xalqaro xotin-qizlar kuni oldidan sportimiz malikalarini taqdirlash marosimi o'tkaziladi.

dasturi»ga asosan Andijon viloyatida bitta 5-Tip bolalar sport majmuasi, 16 ta maktablar hududidagi sport zallari qurildi, – deydi rais. – Foydalanishga topshirilayotgan sport majmualarini ta'mirlash uchun Respublika jamg'armasi tomonidan 158 million so'mlik jihoz va anjomlar olib kelinib, joylarga yetkazib berildi. Shunisi quvonarliki, sport anjomlarimiz asosan o'zimizda ishlab chiqarilgan.

Viloyatda mavjud sport inshootlarining to'rttasida, jumladan, Bog'ishamol hududida qurilgan 5-Tip sport majmuasi, Andijon shahridagi 47-maktab, Shahrixondagi 9-maktab hamda Paxtaobod tumanidagi 16-maktab hududidagi sport zallari zamon talablariga to'la javob bera oladigan sun'iy to'shamali pollar bilan jihozlandi. O'tgan yili esa ikkita sport zalimiz shunday jihozlardan biri bilan jihozlangandi. Murabbiy va mutaxassislar fikricha, sun'iy pollarda mashg'ulot o'tkazish sportchilarimizga, ayniqsa, qizlarimizda jarohat oldini olishga katta yordam berar ekan.

Mavjud sport inshootlaridan samarali foydalanish burchimiz. Bizga ko'proq murabbiylar kerak. Qizlarimizni ko'proq sportga jalb etish

mentalitetimizga ko'ra, ayol murabbiylarga ehtiyoj seziladi. O'tgan yili O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutiga xotin-qizlar sportini rivojlantirish yo'nalishi bo'yicha 211 nafar qizlarni o'qishga qabul qilishdi. Ularning 20 nafari bizning viloyatdan. Viloyat xotin-qizlar qo'mitasi va bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi bu qizlarning o'qishi uchun shartnoma pullarini to'lab berdi. O'tgan yili 16 nafar qizlar o'qishga kirgan edi. Ularni qo'llab-quvvatlashga homiy tashkilotlar ham o'z yordamlarini berishsa, yaxshi bo'lardi.

Viloyatimizda boks, belbog'li kurash, turon yakkakurashi, suzish kabi sport turlaridan kuchli sportchilar borligi uchun yoshlar orasida ushbu turlarga qiziqish katta. Masalan, bir yil ichida viloyatda 5 ta yangi seksiyalar ochilganligi shunga ishoradir. Ammo Andijonda rivoji sust bo'lgan sport turlari ham yo'q emas. Badiiy gimnastika, sinxron suzish, tramlindan suvga sakrash turlaridan mutaxassislar tanqisligi bois, to'garaklar kam edi. Shuni inobatga olib, Andijon viloyat gimnastika maktabida badiiy gimnastika bo'yicha o'quv kurslari tashkil qildik. Kursimizning birinchi bosqichida 25 nafar qizlar o'qiyapti. Tumanlardagi

9-mart kuni shahrimizning Sebzor dahasidagi bolalar maxsus suv sporti saroyida O'zbekiston xotin-qizlar sovrini uchun yana bir musobaqa tashkillashtirilyapti. Unda toshkentlik sinxronchi qizlarimiz suzish bo'yicha o'zaro bahslashadilar.

to'garaklarda tahsil olayotgan qizlar o'rtasida viloyat birinchiligi tashkil etdik. Bugun tumanlardagi turli bayram tadbirlari badiiy gimnastikachilarimizning ko'rgazmali chiqishlarisiz o'tmaydi.

Bu jarayonlarning natijasi tezda bilindi. Sinxron suzish bo'yicha Natalya Mamarazzoqova shogirdlari Malayziyada o'tgan xalqaro turnirdan kumush medal bilan qaytishdi. Tramlindan sakrash bo'yicha murabbiy Sergey Kormilovning ham Andijon olimpiya zahiralari sport kollejidagi o'quvchi qizlarimizning soni ortib bormoqda.

Aytgancha, jamg'armamiz mutaxassislari nafis sport turlaridan hisoblanmish badmintonni ham viloyatda ommalashtirishga astoydil bel bog'lashgan. Bugungi kunda andijonlik badmintonchi qizlarimiz ham respublika birinchiligida peshqadam. Ular Toshkent shahri vakillariga munosib qarshilik ko'rsatib, sovrinli o'rindardan joy egallashmoqda.

Yaqinda jamg'arma tomonidan sport majmualarida shug'ullanayotgan kam ta'minlanayotgan oilalar farzandlariga sport kiyimlari tarqatdik.

Liboslarni tarqatish jarayonida, ayniqsa, qizlarimizga bir gapni aytdik: «Iltimos, avvalo, sport mashg'ulotlariga qatnashinglar, dugonalarimizni ham sport zaliga olib keling».

Ha, jamg'arma raisi Ikrom akaning maqsadi Andijonda Maftuna, Ra'no kabi rekordchi qizlarni elga tanitish. Biz viloyat bolalar sportini rivojlanishga fidoiylilik qilayotgan bunday insonlarga har kuningiz savob ila o'tayotganligiga havas qilamiz, dedik.

G 'OLIBA tayyorladi

BOLALARGA OSHNO IJODKOR



Aziz o'quvchilar! Anvar Madrahimov nomi sizga yaxshi tanish. U kishining ko'plab ertak, hikoyalari o'qigansiz. O'tgan yili gazetamiz orqali «Oltin beshik» turkum hikoyalari bilan tanishgan edingiz.

– Esimda, onam «Ko'zing tinib ketadi, uxlagin, bolam», deb kechalari chiroqni o'chirib qo'ygan paytlarida, ko'chadan tushayotgan yorug'likda mutolaani davom ettirardim, – deya eslaydi u.

Shu kuchli ishtiyoq keyinchalik uni jozibali adabiyot va noshirlik olamiga boshlab kirdi. O'tgan yillar davomida «Non», «Tulkining g'aroyib sarguzashtlari», «Rasmi alifbo», «Ko'kchalik bolaning jumboqlari» kabi kitoblari nashr etildi.

– «Tong yulduzi» gazetasining bundan buyon ham qiziqarli va sermazmun bo'lishini istayman. Gazetangiz obunachilarining safi tobora kengayib borishiga tilakdoshman, – deydilar Anvar aka.

Anvar bobongiz sira oltimshvoyga o'xshamaydilar. Hali g'ayratlari zo'r. Sizlarga yangi-yangi asarlar yozib tuhfa etishni ko'zlab turibdilar. Qalamingizdan eng a'lo asarlar yuzaga kelishini tilaymiz. Doimo sog' bo'ling. Quyida Anvar Madrahimov ijodidan namunalar o'qiydiz.

– Ko'zingga qarab yur, yana yiqilib tushmagin, – dedi Nodirning oyisi. U «xo'p, ayajon», deb uyga kirib, kichik ko'zguni olib chiqdi.

– Nega olding? Qo'y, sindirasan, – dedi oyisi jahl bilan.

– Ko'zimga qarab yurish uchun oldim. Bo'lmasa, ko'zimga qanday qarab yuraman? – hayron bo'lib so'radi Nodir.

QIZIQ GAPLAR

Dadam: – Ahmadning qulog'i yo'q, hech gapga kirmaydi, – deb qoldilar. Ahmadni ertalab ko'rganimda, ikkala qulog'i ham joyida edi. Hayron bo'lib, uni ko'rgani chiqib ketayotgan edim, dadam ayamlarga qarab: – Buni ham qulog'i yo'q, – deb qoldilar. Taqqa to'xtab, ikkala qulog'imni ushladim. Dadam bilan ayamlar kulib yuborishdi. Qiziq, dadam nega yolg'on gapirdilar.


Qo'limdagi yukni «U yog'i zarang, bu yog'i zarang, o'rtasida Boymirza garang»ga qo'ydim.

Xonaga kirib, ko'zim «Miltillay ko'zlari, mo'ltillaydi yoshlari»ga tushdi.

Oyimlar «Og'zi qora alomat, ichi qizil qiyomat» oldida uzoq qolib ketdilar.

Oyimlar menga taxmondan «kunduzi izzatda, kechasi xizmatda»ni olib berdilar.

Bundoq qarasam, yopiray, «U yoqqa boradi, bu yoqqa boradi, bo'z



Dalada yurgandim, «Yer tagida moyli qaynash»ni ko'rib qolib, qo'rqib ketdim.

Bunga nima

G'AROYIB JUMBOQLAR

to'qiydi.

Surishtirsam, «Otlari har xil, yoshlari bir xil» ekan.

«Yarmi qora, yarmi oq» oldinma-keyin salom berib kelaverarkan.

Juda jahlim chiqdi, negaki, so'ramasdan «Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar ekan».

deysiz, «Hamma vaqt og'zimda, hech yuta olmayman».

«Oyog'i yo'q qochadi, qanoti yo'q uchadi» derazadan uyga kirishi bilan hamma tashqariga chiqadi.

«Osmonda bor, yerda yo'q. Kampirda bor, qizda yo'q»ni qidirayotib, o'zimda topdim.

Anvar MADRAHIMOV

BUGUNNING



«YANGI AVLOD»LARI



Iskandar Bozorov Toshkent shahridagi 51-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi. «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivali g'olibi.

Iskandar Bozorov iste'dodli, izlanuvchan, ilmga chanqoq yoshlardan biri. U M.Ashrafiy nomidagi Respublika ko'rik-tanlovida 2-o'rin, «San'at g'unchalari» tanlovida ham faxrli 2-o'rinni egallagan.

Iskandar dunyo bo'ylab sayohat qilishni yoqtiradi. Uning eng katta orzusi el sevgan skripkachi bo'lish. Ingliz, fransuz tillariga qiziqadi va qunt bilan ushbu tillarni o'rganmoqda.

– «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivali orqali ko'pgina do'stlar orttirdim va o'zbek estrada yulduzlari san'ati bilan tanishish inkoniyatiga ega bo'ldim. Bu kabi festivallar ko'proq tashkil qilinishini istayman, – dedi Iskandar. Biz ham Iskandarga muvaffaqiyat tilaymiz va go'zal kuylar kutib qolamiz.

Yoqtirgan fani: algebra-geometriya.
Filmi: Garri Potter.
Sevimli qo'shiqchisi: Dima Bilan.
Sport turi: futbol.
Sevimli taomi: kabob, manti.
Yoqtirgan rangi: qora, ko'k, qizil.
Sevimli bayrami: «Yangi yil».
Hayotdagi shiori: «Doimo olg'a».

Nazokatxon TOJIBOYEVA,
O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti talabasi

OZ-OZ O'RGANIB DONO BO'LUR

Qadrdon va suykli o'quvchim! Bu dunyoda bir zot borki, u hamisha maqtovga va jamiki oliy mukofotlarga sazovor. Bu zot boshimzdagi Quyosh, tunlari parvona Oy, bizga ezgulik istagan, yaxshiliklar tilagan volidai muhtarama onamizdir. Shuning uchun ham Alisher Navoiy hazratlari «Jismni sadqa qil ano qoshig'a» deydi, onaning haqini hech bir narsa bilan ado etib bo'lmaydi.

Rivoyat qiladilarki, bir yigit hajga borishni ko'zladi va maslahat so'ragani dononing oldiga boribdi. Dono uning so'zlarini diqqat bilan tinglagach:

– Volidai muhtaramangizdan rozilik olganmisiz? – deb so'rabdi. Yigit yolg'iz o'g'il ekanligini aytibdi.

Dono:

– Onangizda mehribonchilik qilganingiz ma'qulroq! – deya maslahat beribdi.

onasini yelkasida ko'tarib, dunyoni aylantirib kelibdi va donodan:

– Onam oldiga qarzimni uzdimmi? – deb so'rabdi.

– Ko'p yashang! – deya uni maqtabdi dono va: – Onangizning bir kechalik qarzini uzibiz! – debdi.

– Nahotki? – hayron bo'libdi yigit.

– Ha, shunday, o'g'lim! Bu ishingiz bilan onangizning bir kecha uyqusini buzib, beshigingiz uzra mehribonlik qilib, ko'ksini tutgan bir oqshomlik qarzini uzdingiz, xolos! – debdi dono.

Ona qalbi bitmas-tuganmas xazina. Unda dunyoning jamiki mehri, quyoshning tafti, oying ziyosi, zarlarning zari bor. Onadan mehr, harorat, nur va zar olgan bola dunyodagi eng baxtli insonga aylanadi. Siz ham, aziz o'quvchim, ana shunday baxtli insonlar safidan joy oling. Bayram bahona onajoningizni eng yaxshi so'zlar bilan tabriklab qo'ydingizmi? Bil'aks, bir og'iz shirin so'zingiz volidai muhtaramangizning butun dunyosini charog'on etadi. Shirin so'zingizdan ortiq tabrik yo'q.

Rivoyat qiladilarki, bir yigit



BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25, 144-63-08
Tel./faks:
(99871) 144-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Adadi - 58114
Buyurtma N: J 4818

Muassislar:
O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHYOIDDOROV
Navbatchi:
Feruz SOYIBJON qizi